



“TEATR SAN’ATI VA UNING JAMIYAT HAMDA SHAXS  
RIVOJIDAGI ROLI “

*Absemetova Ulbosin*

*O‘zbekiston Davlat San‘at va Madaniyat Instituti Nukus filiali*

*“Teatrshunoslik” bo‘limi 1-kurs student*

*Ilimiy rahbar: Darushova Darixa*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola teatr san‘atining ahamiyati, uning jamiyat va shaxs tarbiyasidagi roli haqida so‘z yuritadi. Muallif teatrning inson ruhiyatini shakillantirish, hissiyotlarini uyg‘otish va madaniy merosni saqlashdagi o‘rni haqida tahlil qiladi. Shuningdek, maqolada teatr asarlarining turli janrlari va sahna ijrosi orqali tomoshabinlar bilan qanday muloqot o‘rnatish ham yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** teatr, sahna san‘ati, drama, tragediya, komediya, tomoshabin, tarbiya, madaniyat, ijro hissiyotlar,

Teatr – inson qalbining sehri oynasi. Teatr shunchaki sahna, aktyor va tomoshabinlardan iborat joy emas. Teatr-inson qalbining eng chuqur tuyg‘ularini ochib beradigan sehri dunyo. Sahna ochilganda, go‘yo hayotning o‘zi ko‘z o‘ngimizda jonlanadi: quvonch, izzat, muxabbat; kurash va umid bir lahzada tomoshabin qalbiga yetib boradi.

Teatr qadim zamonlardan beri insoniyat madaniyatining muhim qismi bo‘lib kelgan. U insonni o‘ylashga his qilishga va hayotga boshqacha nigoh bilan qarashga undaydi. Sahnadagi har bir obraz - bu oddiy rol mas, balki inson hayotining bir bo‘lagi. Aktyor o‘z iste‘dodi bilan tomoshabinni kuldiradi, o‘ylantiradi, ba‘zan esa ko‘zga yosh ham keltiradi. Buyuk dramaturglar teatr orqali ja‘miyatdagi muammolarni ko‘rsatganlar.

Masalan, William Shakespeare o‘z asarlarida inson tabiatini, muhabbatni va adolatni chuqur tasvirlagan. Teatr san‘at rivojiga katta hissa qo‘shgan ustozlardan biri – Konstantin Stanislavskiy bo‘lib, u aktyorlik mahoratini yangi bosqichga olib chiqqan.



Teatrning eng katta kuchi shundaki ,u odamlarni birlashtiradi .Tomoshabinlar zalda o'tirib,bir voqeani birgalikda his qiladilar.Bu esa insonlar o'rtasida ruhiy yaqinlikni kuchaytiradi.Teatr tomoshasi tugaganidan keyin ham sahnadagi voqealar odamlarning qalbida uzoq vaqt yashaydi.

Bugungi kunda teatr nafaqat ko'ngilochar san'at ,balki tarbiya maktabi hamdir.U yoshlarni ezgulik,vatanparvarlik,mehr-oqibat kabi qadiryatlarga chorlaydi.Sahna orqali inson hayotning qadrini,insoniylikni,yanada chuqurroq anglaydi.Xo'losa qilib aytganda ,teatr-bu san'atning yuragi ,inson qalbining aksadosidir .U bizni yaxshilikka undaydi ,hayotni chuqurroq tushunishga yordam beradi va qalbimizda yorug' tuyg'ular uyg'otadi.Shuning uchun ham teatr har doim insoniyat madaniyatining bebaho xazinasini bo'lib qoladi.

Teatr-bu insonlar qalbining sehrli oynasidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qodiriy asarlari va dramaturgiya to'plamlari-o'zbek dramaturgiyasidan misollar,sahnadagi ijro usullari.
2. San'at tariyxi va madaniyat asoslari darsligi-teatr turlari,sahna san'ati,komediya,tragediya,haqida nazariy malumotlar.
3. Konstantin Stanislavski "San'at sifatida aktyorlik" Moskva,1920.
4. "Dramaturgiya tarixi" Toshkent,2010.